

O'ZBEKİSTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA BOSHLANG'ICH
TA'LIMDA PEDAGOGIK TEKNOLOGİYALAR

Turaxanova Nodira Rustamovna
Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani
30- sonli umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada prezidentimizning PF 6108 farmoni hamda boshlang'ich ta'linda zamонавиy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida fikr-mulohazalar keltirildi.

Kalit so'zlar: *Fikrlar hujumi*, «*Tarmoqlar*» metodi, «*Sinkveyn*», «*BBB*», «*Beshinchisi ortiqcha*», «*6x6x6*», «*Bahs-munozara*», «*Rolli o'yin*», *FSMU*, «*Kichik guruhlarda ishlash*», «*Yumaloqlangan qor*», «*Zigzag*»

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lif-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamонавиy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lif tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtaida yaqin hankorlik va integratsiyani, ta'lifning uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta'lif-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Mamlakatimizda ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyo'lilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida prezidentimizning PF 6108 farmoni qabul qilindi. Farmonga binoan:



"Pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini hayot davomida o'qish tamoyili asosida takomillashtirib borish;

-ilmiy-tadqiqot va ta'lif xizmatharini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lif tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;



-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'lifni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'lifni yanada rivojlantirish, ta'lif oluvchilar o'rtaida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish; yangi avlod darsliklarini o'qituvchining metodik qo'llanmasi, o'quvchining mashq daftari va multimedia ilovasi bilan birga kompleks tarzda yaratish va nashr etish;

O'quvchilarning fan bo'yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarini baholash hamda kasblarga bo'lgan qiziqishini aniqlash tizimini joriy etish" kabi bit qator muhim topshiriq va vazifalar berildi.



Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har bir o'qituvchi o'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKTdan foydalangan holda, mustahkam ta'lif va tarbiya bersa bizning kelajagimiz kafotlanadi. Ta'lif va tarbiya jarayoni esa avvalo boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Bola qalbi misoli oq qog'oz deyishadi. Darhaqiqat bola qalbiga avvalo ezgulik urug'ini ekib, mustahkam bilim berish pedagoglardan yuksak bilim saviyasini hamda pedagogik mahorat talab qiladi. Quyida boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida to'xtalamiz.

Boshlang'ich ta'lifda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyatda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'nnaviyatlari shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda.

Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'lifda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalaniш esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlarini qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarini ham o'zlarini keltirib chiqarishga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'lifda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, o'qituvchining kasb mahorati orqali dars samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Sh.M.Mirziyoyev O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida

2.Aliyev M."Pedagogik texnologiyalar".-T:"O'qituvchi",2012